



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I

2026-yil uchun maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlarini
uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarining
o‘quv reja va dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda 2026-yilda maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining malaka oshirish kurslari o‘quv reja va dasturlarini tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2026-yilda maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari: direktorlarining malakasini oshirish kurslari – menejerlik o‘quv kurslari uchun belgilangan tartib asosida;

pedagog va mutaxassis xodimlarning malaka oshirish kurslari – variativ (ixtiyoriy tanlov) va invariant (majburiy) modullardan iborat differentsiallashtirilgan ta’lim dasturlari asosida tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Malaka oshirish kurslari o‘quv rejalariga tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq; Maktabgacha ta’lim pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish kurslarining invariant o‘quv dasturi 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish kurslarining invariant o‘quv dasturi 3-ilovaga muvofiq;

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga nomzodlar uchun menejerlik o‘quv kursining takomillashtirilgan o‘quv reja va dasturi 4 va 5-ilovalarga muvofiq;

Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar uchun menejerlik o‘quv kursining takomillashtirilgan o‘quv reja va dasturi 6 va 7-ilovalarga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internati) o‘quv ishlari bo‘yicha

direktor o‘rinbosarlari malakasini oshirish kurslarining o‘quv reja va dasturlari 8-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi (maktab-internati) ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari malakasini oshirish kurslarining o‘quv reja va dasturlari 9-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining ikkinchi toifali va malaka toifasi bo‘lmagan pedagog, mutaxassis va rahbar xodimlari malakasini oshirish (keyingi o‘rinlarda – “Rivojlantiruvchi”) kurslarining o‘quv reja va dasturlari 10–44-ilovalarga muvofiq;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining oliy va birinchi malaka toifali pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish (keyingi o‘rinlarda – “Yuksaltiruvchi”) kurslarining variativ o‘quv reja va dasturlari 45–69-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdullaeva) Pedagogik mahorat markazlari bilan hamkorlikda bir hafta muddatda o‘quv dasturlariga kiritilgan yangi mavzular uchun o‘quv kontentini ishlab chiqsin.

Bunda, quyidagilarga alohida e‘tibor qaratilsin:

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da maktabgacha va maktab ta‘limi tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalarning ijrosi;

Prezident maktablari tajribasiga asoslangan metodikalar va ilg‘or amaliyotlarni umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida joriy etish;

bolalar huquqlarini himoya qilish, ularni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etmaslik, sinfni boshqarish, ta‘lim-tarbiya jarayonida ijobiy tartib-intizomni saqlash;

qatag‘on qurbonlarini yod etish orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir bilimlarni chuqurlashtirish;

korruptsiyaga qarshi kurash hamda narkotik moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi profilaktika bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

uzluksiz kasbiy rivojlantirish sohasidagi xorijiy tajribalarni, jumladan, ijtimoiy-emotsional ta‘lim (SEL) metodlarini o‘rgatish.

4. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (H.G‘aniyev) hamda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari professor-o‘qituvchilari, mutaxassis xodimlari va metodistlarining malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda, pedagogik mahorat markazlari professor-o‘qituvchilari, mutaxassis xodimlari hamda metodistlarining malaka oshirishi A.Avloniy nomidagi pedagogik

mahorat milliy instituti tomonidan ilg'or xorijiy tajribalar asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 402-sonli buyrug'i hamda 2024-yil 24-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorligiga nomzodlar uchun menejerlik o'quv kurslarining o'quv kurslarining o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 412-son buyrug'ining 1-4-ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti va Pedagogik mahorat markazlariga yetkazsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Turdiyev zimmasiga yuklansin.

**Vazirning
birinchi o'rinbosari**



Sh.Karimov

Toshkent sh.,
2026-yil " 8 "-yanvar,
6-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar uchun
menejerlik o'quv kursining takomillashtirilgan
O'QUV REJASI

Tinglovchilar tarkibi: umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktorlari va direktorlikka nomzodlar
Malaka oshirish muddati: bir oy (144 soat)
Malaka oshirish turi: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish

№	O'quv modullari nomi	Umumiy o'quv yuklama hajmi		Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)			Soatlarning haftalar bo'yicha taqsimoti			
		Soat	%	Jami	Nazariy	Amaliy	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
							Haftadagi soatlar soni			
							36	36	36	36
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	Ta'lim menejmenti	24	16,7	24	4	20	6	6	6	6
2	O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish	20	13,9	20	2	18	6	4	4	6
3	Rahbarning o'zini-o'zi va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi (CPD)	12	8,3	12	2	10	4	4	4	
4	Inson resurslarini boshqarish (HR)	16	11,1	16	4	12		6	2	8
5	Ish yuritish va hisobdorlik	6	4,2	6	2	4	4	2		
6	Jamoatchilik va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik	6	4,2	6		6	4	2		
7	Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI)	10	6,9	10		10			6	4
8	Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish	8	5,6	8	2	6	6	2		
9	Inklyuziv ta'limni tashkil etish	6	4,2	6	4	2	4	2		
10	Moliyaviy munosabatlarni boshqarish	12	8,3	12	2	10	2	2	8	
11	Maktab amaliyoti (Ilg'or tajribani o'rganish)	6	4,2	6		6			6	
12	Amaliy topshiriqlar konsultatsiyasi	6	4,2	6		6		6		
13	Yakuniy sinov	12	8,3	12		12				12
13.1.	Test va keys topshirig'i	4	2,8	4		4				4
13.2.	Amaliy topshiriqlar taqdimoti	8	5,6	8		8				8
JAMI		144	100,0	144	22	122	36	36	36	36

Izoh:

1. Mazkur o'quv reja asosida kurs boshlanishida ishchi o'quv reja shakllantiriladi.

Bunda:

- o'quv rejadagi modullarga ajratilgan soatlar hajmini 5 foizgacha, modullar tarkibidagi mavzular hajmini 10 foizgacha o'zgartirish huquqi beriladi;
- mashg'ulotlar (nazariy, amaliy va maktab amaliyoti) turlariga ajratilgan soatlar miqdorini o'zgartirish huquqi beriladi;
- o'quv yuklamasining haftalik (36 soat) hajmini saqlagan holda o'quv modullariga ajratilgan soatlarning haftalar bo'yicha taqsimotini mustaqil belgilash huquqi beriladi;
- "Maktab amaliyoti" mashg'ulotlari tinglovchilarning belgilangan maktablarga borgan holda bevosita amaliyot o'tashi yoki yuqori malaka va tajribaga ega bo'lgan maktab direktorlari rahbarligida auditoriyada ilg'or tajribani o'rganish shaklida amalga oshiriladi. "Maktab amaliyoti" va o'quv mashg'ulotlari natijasida tinglovchilar tomonidan ijodiy ish yoki loyiha shaklidagi "Amaliy topshiriqlar taqdimoti" ishlab chiqiladi;
- Amaliy topshiriqlar konsultatsiyasi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining professor-o'qituvchilari va trenerlari tomonidan kurs tinglovchilariga amaliy topshiriqlar va taqdimotlarni tayyorlanishi bo'yicha bevosita metodik maslahatlar, aniq yo'nalishlar ko'rsatish, to'g'ri yo'l-yo'riq hamda ko'rsatmalar berish tarzida amalga oshiriladi.

2. Kurs tinglovchilarining yakuniy sinovi test, keys topshiriqlari va "Amaliy topshiriqlar taqdimoti"dan iborat bo'ladi. Bunda:

- test sinovi kompyuter vositasida yoki qog'oz shaklida o'tkazilishi mumkin;
- keys topshiriqlari muammoli vaziyatlar bo'yicha topshiriqlaridan iborat bo'lib, qog'oz shaklida yoki kompyuterda bajariladi;
- "Amaliy topshiriqlar taqdimoti"ni bajarish ijodiy yoki loyiha ishlaridan iborat bo'ladi.

3. O'quv rejasidagi soatlar tinglovchining o'quv yuklamasini tashkil qiladi, dars mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar va yakuniy sinov komissiyasi tarkibiga ish haqi "Vaqt me'yorlari"da belgilangan tartibda hisoblanadi.

Mazkur o'quv reja A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil 23-dekabrda 13-son yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

"ISHLAB CHIQLDI"


A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy
institutining rektori



A. Ismailov

"KELISHILDI"

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni
tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i


2026-yil _____ H.G'aniyev

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2026-yil 8-yanvardagi 6-son buyrug'iga
7-ILOVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI**

**DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI
DIREKTORI LAVOZIMIGA NOMZODLAR UCHUN
MENEJERLIK O'QUV KURSINING TAKOMILLASHTIRILGAN
O'QUV DASTURI**

Toshkent – 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Menejerlik o‘quv kursining o‘quv dasturi

Tuzuvchilar:

- | | | |
|--------------------|---|--|
| Ismailov A.A. | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| Kazakova S.A. | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti birinchi prorektori |
| Alkarov E.M. | – | Rahbar kadrlar malakasini oshirish kurslarini metodik ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha PhD, dotsent |
| Xudoyberdiyev E.U. | – | “Ta‘lim menejmenti” kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| Daminova Sh.K. | – | Rahbar kadrlar malakasini oshirish kurslarini metodik ta‘minlash bo‘limi bosh mutaxassisi |
| Jabborova Y.H. | – | Rahbar kadrlar malakasini oshirish kurslarini metodik ta‘minlash bo‘limi bosh mutaxassisi |
| Kuchkarov O‘.V. | – | “Ta‘lim menejmenti” kafedrası katta o‘qituvchisi |
| Muxamedov Sh. | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi |
| Sodiqov R.T. | – | Rahbar kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi direktori |
| Saidqulov S.B. | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti |
| Mannanova N.X. | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti |

Taqrizchilar:

- | | | |
|------------------|---|--|
| Yuldashev M.A. | – | Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor |
| Baybayeva M.X. | - | Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Pedagogika” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori |
| Otamurodov G‘.R. | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Doktorantura bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| Xurramov I.A. | - | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |

Mazkur o‘quv dasturi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil 23-dekabrda 13-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma‘qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kirish

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 681-son qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 28-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari uchun menejerlik o'quv kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 578-son buyrug'i, shuningdek, maktab direktorlarini tanlash, tayyorlash va ularni uzluksiz malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maktab ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlarida liderlik hamda menejerlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati, umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda rahbar madaniyati, mas'uliyati va o'zgarishlarga moslashuvchanligi, boshqaruv faoliyatiga ilmiy yondashuvi, jamoada ishlash, ota-onalar bilan muloqot qilish, davlat, nodavlat va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, inklyuziv ta'limni tashkil etish, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari va rahbar kadrlar zaxirasini tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari hamda mazkur kurslarning o'quv rejasi asosida shakllantirilgan.

Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlarni menejerlik kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish kursining namunaviy o'quv dasturi, ular egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalar

va direktor kasb standarti bo'yicha quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

- I. Ta'lim menejmenti
- II. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish
- III. Rahbarning o'zini-o'zi va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi (CPD)
- IV. Inson resurslarini boshqarish (HR)
- V. Ish yuritish va hisobdorlik
- VI. Jamoatchilik va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik
- VII. Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI)
- VIII. Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish
- IX. Inklyuziv ta'limni tashkil etish
- X. Moliyaviy munosabatlarni boshqarish
- XI. Maktab amaliyoti (Ilg'or tajribani o'rganish)
- XII. Amaliy topshiriqlar konsultatsiyasi

Kursning maqsadi va vazifalari

Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlar uchun "Menejment o'quv kursi"ning maqsadi – rahbar madaniyati, mas'uliyati va o'zgarishlarga moslashuvchanligi, boshqaruv faoliyatiga ilmiy yondashuvi, jamoada ishlash, ota-onalar bilan muloqot qilish, davlat, nodavlat va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, inklyuziv ta'limni tashkil etish, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

tinglovchilarga ta'lim menejmenti asoslarini nazariy va amaliy jihatdan tushuntirish;

tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rgatish;

ta'lim muassasalarini boshqarishning ilg'or texnologiyalari va xorijiy tajribalarni o'rganish;

rahbar xodimlarni ta'lim muassasalarini boshqarishning moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti, ta'lim sohasi marketingi, muassasa xavfsizligi masalalariga doir bilimlar bilan qurollantirish;

tinglovchilarni ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirish;

rahbar xodimlarga boshqaruv jarayonida qo'llaniladigan optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalarini o'rgatish; rahbar xodimlarning kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellektni qo'llash malakalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlar uchun menejerlik kursi o'quv rejasi "Ta'lim menejmenti", "O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish", "Rahbarning o'zini-o'zi va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi (CPD)", "Inson resurslarini boshqarish (HR)", "Ish yuritish va hisobdorlik", "Jamoatchilik va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik", "Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI)", "Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish", "Inklyuziv ta'limni tashkil etish", "Moliyaviy munosabatlarni boshqarish", "Maktab amaliyoti (Ilg'or tajribani o'rganish)" modullari bo'yicha maktab direktori lavozimiga nomzodlarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar tegishli yo'nalish bo'yicha davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktorlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari hamda kasb standarti asosida belgilanadi.

Kurs hajmi

Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlar uchun menejerlik o'quv kursining hajmi 12 ta modul va yakuniy sinovdan iborat bo'lib, 144 soatni tashkil etadi.

Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlar uchun menejerlik o'quv kursining o'quv dasturi modullarining mazmuni

I. Ta'lim menejmenti modulining o'quv mavzu rejasi

T/r	O'quv modullari va mavzularning nomlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarish	4	2	2
2.	Strategik menejment	8	2	6
3.	Boshqaruv psixologiyasi	4		4
4.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va bartaraf etish	2		2
5.	Boshqaruv qarorlari	4		4
6.	Maktab imijini shakllantirish	2		2
	Jami	24	4	20

I. Ta'lim menejmenti modulining o'quv dasturi

Umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarish

(2 soat nazariy, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalari. Umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarishda boshqaruv tamoyillari, funksiyalari, uslublari va usullaridan samarali foydalanish. Maktablarni akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va jarayoni: ichki va tashqi baholash. Boshqaruv samaradorligini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar.

Strategik menejment

(2 soat nazariy, 6 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Maktabning missiya va maqsadlarini belgilash.

Strategik baholash: maktabning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish, ichki muhitdagi kuchli va zaif, tashqi muhitdagi imkoniyat va xavf-xatar (to'siqlar)ni

aniqlash. Strategik rejalashtirish: aniqlangan muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Strategik faoliyatni amalga oshirish: boshqaruvda strategiyaga ustuvorlik berish, operatsion, taktik va strategik rejalar uyg'unligini ta'minlash, strategik boshqaruvda transformatsion liderlikni qo'llash.

Maktabni loyiha sifatida boshqarish va maktab ichida loyihalarni amalga oshirish. Strategik faoliyat natijalari.

Boshqaruv psixologiyasi

(4 soat amaliy mashg'ulot)

Rahbar shaxsining psixologik portreti: rahbarning xarakter tiplari, yetakchilik uslublari, emotsional intellekt va uning maktab boshqaruvidagi roli, stressga chidamlilik, konfliktlarga moslashuvchanlik.

O'qituvchilar jamoasi psixologiyasi: o'qituvchilarning motivatsiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar, Jamoada ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, pedagoglar bilan individual ishlash usullari, burnout (charchash sindromi)ni oldini olish. O'quvchilar bilan ishlash psixologiyasi: yosh psixologiyasi (boshlang'ich-o'rta-yuqori sinf), o'quvchilarda intizomdagi psixologik omillar, inkluziv ta'lim jarayonidagi psixologik yondashuvlar, murakkab tabiatli o'quvchilar bilan ishlashning psixologik modellari.

Stressni boshqarish va hissiyotlarni nazorat qilish: rahbar uchun stress manbalari va ularni kamaytirish usullari, hissiyotlarni boshqarish texnikalari, maktabdagi murakkab vaziyatlarda o'zini tutish.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va bartaraf etish

(2 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar mazmun-mohiyati. Halollik vaksinasi. Maktablarda korrupsion holatlar va keltirib chiqaruvchi omillar. Korrupsion xavf xatarlarni aniqlash va ularga barham berishda rahbar mas'uliyati.

Boshqaruv qarorlari

(4 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining tashkiliy-pedagogik xususiyatlari. Boshqaruv qarorlari va ularning turlari. Pedagogik kengash va Kuzatuv kengashi faoliyatining mazmuni, ularning maktab boshqaruvidagi o'rni hamda qarorlar samaradorligiga ta'sirining tahlili.

Pedagogik kengashda maktabning ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, muammolarni muhokama qilish, o'qituvchilarning metodik faoliyatini

muvofiglashtirishda partisipativ boshqaruv sifatida tashkil etish. Kuzatuv kengashi maktabning moliyaviy, tashkiliy va strategik rivojlanish masalalari bo'yicha jamoatchilik ishtirokini ta'minlovchi muhim boshqaruv bo'g'ini sifatida.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish, qarorlarning bajarilishini tashkil etish, nazorat qilish, tuzatishlar kiritish, ijrosini ta'minlash va baholash. Qarorlarining maktab rivojlanishiga ta'siri, boshqaruvda ochiqlik, ishtirokchilik va shaffoflik tamoyillarini ta'minlashdagi roli.

Maktab imijini shakllantirish

(2 soat amaliy mashg'ulot)

Maktab imiji tushunchasi va ahamiyati. Maktabning ichki va tashqi imiji. Ichki imijni shakllantirish: pedagoglar bilan ishlash, o'qituvchi – maktab imijining asosiy komponenti, pedagogik madaniyat va kasbiy etikani rivojlantirish, o'quvchilar bilan ishlash, o'quvchilar xulqi va yutuqlarining imijga ta'siri.

Tashqi imijni shakllantirish – maktabni tashqi muhitga to'g'ri namoyon qilish: ota-onalar bilan hamkorlik, jamoatchilik va hamkorlar bilan aloqalar, maktab yutuqlarini ommaga to'g'ri yetkazish, tadbirlar va loyihalar orqali ijobiy qiyofa yaratish. Maktabning PR (jamoatchilik bilan aloqalar) faoliyatini samarali tashkil etish.

Rahbar imiji (direktor shaxsiy brendi). Raqamli imij va axborot siyosati. Maktab madaniyati va qadriyatlari. Imijni baholash va rivojlantirish.

II. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish modulining o'quv mavzu rejasi

T/r	O'quv modullari va mavzularning nomlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Ta'lim sifatini boshqarish	4	2	2
2.	O'quvchilarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish masalalari	4		4
3.	O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va kasb tanlash masalalari	4		4
4.	Ta'lim sifatini baholash	4		4
5.	Bola xavfsizligi va farovonligini ta'minlash tamoyillari	4		4
	Jami	20	2	18

II. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish va rivojlantirish modulining o'quv dasturi

Ta'lim sifatini boshqarish

(2 soat nazariy, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Davlat ta'lim standarti (DTS) va davlat ta'lim talablari (DTT). O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish. Ta'lim sifatini boshqarish usullari. Umumiy o'rta ta'lim muassasasida barcha jarayonlar, rahbariyat va xodimlarning birgalikdagi harakatlari orqali ta'lim sifatini taminlash.

O'quvchilarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish masalalari

(4 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta ta'limning o'quv reja va dasturlari mazmuni. O'quv reja va dasturlarning darslar mazmuniga singdirilishini ta'minlash. O'quvchi portreti. O'qituvchining past o'zlashtiruvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan faoliyati. O'quvchilarni o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash. O'qishga bo'lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish bosqichlari.

Muammoli bolalar bilan ishlovchi o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va uslubiy tavsiyalar. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish. O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va kasb tanlash masalalari

(4 soat amaliy mashg'ulot)

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni. O'quvchilarda amaliy ko'nikmalar, zamonaviy kompetensiyalar va kasbiy madaniyatni shakllantirish. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirish. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixologik xizmat, maktab, texnikumlar, mahalla yettiligi va ishlab chiqarish hamkorligi.

Ta'lim sifatini baholash

(4 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning samaradorligini oshirish. Ta'sirchan va sifatli ichki monitoringni tashkil etish. O'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini baholash. Ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash. O'quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi. Mezonlarga asoslangan baholash. Baholashning qiyosiy tahlili. Xalqaro baholash dasturlari.

Bola xavfsizligi va farovonligini ta'minlash tamoyillari

(4 soat amaliy mashg'ulot)

Bola xavfsizligi va farovonligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni. Xavf-xatarlarni erta aniqlash va monitoring qilish: bolada stress, tajovuz, e'tiborsizlik, zo'rovonlik belgilari, o'qituvchi, o'quvchi yoki ota-onaning xulqidagi xavf signallari, maxsus monitoring jadvallari va algoritmlari.

Psixologik farovonlik: direktorlar maktab psixologi bilan tizimli ishlash, o'quvchilarda emotsional barqarorlikni mustahkamlovchi dasturlarni joriy etish,

Bullyingning asosiy ko'rinishi va ularning oldini olish. Maktab infratuzilmasida xavfsizlik talablari. Bolalarning huquqini himoya qilish, ularni zo'rovonlikning barcha (shu jumladan, jinsiy zo'rovonlik) shakllaridan himoya qilish, bolalarga nisbatan zo'rovonlik sodir etmaslik, sinfni boshqarish, ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy tartib-intizomni saqlash. Xodimlar mas'uliyati va etika qoidalari. Bolaga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiqning oldini olish. "Nol toqat" tamoyili – har qanday zo'rovonlik signali darhol ko'rib chiqilishi. Maktab – ota-ona – bolalar o'rtasidagi uzluksiz muloqot.

Favqulodda vaziyatlar bo'yicha harakat rejasi. O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlash standartlari.

Nogironligi bo'lgan bolalarning xavfsiz harakati. Maktabda diskriminatsiya va kamsitishning oldini olish tamoyillari.

Maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash protokollari.

Xavf tahlili va kritik nuqtalari (HACCP) tizimi hamda xavflarni boshqarish prinsiplari. Xatarlarni aniqlash bo'yicha "Case-study". Evakuatsiya bo'yicha mashg'ulot.

III. Rahbarning o'zini-o'zi va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi (CPD) modulining o'quv mavzu rejasi

T/r	O'quv modullari va mavzularning nomlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Zamonaviy rahbar xususiyatlari va boshqaruv kompetensiyasi	4	2	2
2.	Rahbarning boshqaruv va shaxsiy samaradorligini rivojlantirish	4		4
3.	Pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish va ish samaradorligini oshirish	4		4
	Jami	12	2	10

III. Rahbarning o‘zini-o‘zi va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi (CPD) modulining o‘quv dasturi

Zamonaviy rahbar xususiyatlari va boshqaruv kompetensiyasi

(2 soat nazariy, 2 soat amaliy mashg‘ulot)

Zamonaviy maktab direktorining shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari va boshqaruv kompetensiyalari. Maktab direktorining kasb standarti. Menejer va lider. Menejering imiji. Boshqaruv etikasi va uning milliy xususiyatlari. Menejerlik va liderlik sifatlarini shakllantirish.

Maktabda samarali boshqaruvni amalga oshirishda XXI asr ko‘nikmalarining ahamiyati. Maktabning konteksti, qadriyatlari va prinsiplarini o‘rganish. Rahbar odobi va iqtidori o‘rtasidagi dialektik bog‘lanish. Rahbar madaniyati – odob, iymon, insof, adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmui sifatida. Maktab direktorining murabbiylik faoliyati.

Rahbarning boshqaruv va shaxsiy samaradorligini rivojlantirish

(4 soat amaliy mashg‘ulot)

Shaxsiy samaradorlik: vaqtni boshqarish. Vazifalarni ustuvorligiga qarab ajratib olish. Vakolatlarni uzatish va vazifalarni taqsimlash. Rejalashtirish: yil, oy, hafta va kun rejasi. Ish kunini optimallashtirish. “Kecha – bugun – ertaga” tamoyili asosida ishlash. Vaqt va makonni qayta loyihalash. Asosiy maqsaddan chalg‘ituvchi omillarni kamaytirish. O‘zini rivojlantirish strategiyasi: professional o‘‘sish rejasini ishlab chiqish, kitoblar, kurslar, seminarlar orqali o‘z ustida muntazam ishlash, o‘z faoliyatini baholash (self-assessment). O‘zini o‘zgarishlarga tayyorlash va moslashtirish.

Pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish va ish samaradorligini oshirish

(4 soat amaliy mashg‘ulot)

Pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash. Pedagoglardagi bo‘shliqlarni aniqlashda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlariga asoslanish. Pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha strategik, taktik va operatsion rejalar ishlab chiqish. Maktabda “Ustoz-shogird” tizimini rivojlantirish. Tadqiqotga asoslangan dars tamoyili. Pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikda kasbiy rivojlanish va dars tahlili, darsdan so‘ng konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) tizimini rivojlantirish. O‘qituvchilarga metodik yordam berish.

IV. Inson resurslarini boshqarish (HR) modulining o'quv mavzu rejasi

T/r	O'quv modullari va mavzularning nomlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Inson resurslarini boshqarish strategiyasi	4	2	2
2.	Ta'lim muassasalarida mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi	6	2	4
3.	Umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlarga oid hujjatlarning yuritilishi	2		2
4.	Inson resurslari faoliyatini baholash	4		4
	Jami	16	4	12

IV. Inson resurslarini boshqarish (HR) modulining o'quv dasturi

Inson resurslarini boshqarish strategiyasi

(2 soat nazariy, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Ta'lim tashkilotida inson resurslarining o'zni. Maktabdagi xodimlar tuzilmasi: pedagog, psixolog, yordamchi personal, texnik xodimlar. Maktabning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash. Maktabda kompetensiyalar modeli asosida xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish. Xodimlarni tanlash va joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish. Xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyalash.

Ta'lim muassasalarida mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi

(2 soat nazariy, 4 soat amaliy mashg'ulot)

Ta'lim muassasalarida mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish. Mehnat munosabatlari tasnifi. Mehnat huquqiga doir qonunlar va qonunosti hujjatlari. Mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi - ish hujjatlari, mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, buyruq, mehnat ta'tili qonunchiligi va sohaga oid hujjatlar, odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash. Mehnat munosabatlarida kasaba uyushmasining o'zni.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlarga oid hujjatlarning yuritilishi

(2 soat amaliy mashg'ulot)

